

BALIQCILIKDA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBI VA ICHKI NAZORATINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Dusmuratov Radjabbay Davlatbayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Buxgalteriya hisobi kafedrası professori, i.f.d.,
E-mail: r.dusmuratov@tsue.uz

Aitimbetov Amirbek Qoishibekovich

Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta'lim tashkiloti,
Iqtisodiyot fakulteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD), Toshkent kimyo xalqaro universiteti
mustaqil izlanuvchisi
E-mail: amirbek383@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada baliqchilikda biologik aktivlar hisobi va ichki nazoratini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari bayon qilingan. Ya'ni, baliqlarning biotransformatsiyalanishini hisobga olish uchun analitik schyotlar va baliqchilikda biologik aktivlar biotransformatsiyalanishiga doir xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish bo'yicha tavsiyalar, shuningdek, baliqchilik xo'jaliklarida lichinkadan to tovar baliqqacha bo'lgan jarayonni inventarizatsiyadan o'tkazish masalalari yoritilgan holda xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: biologik aktivlar, tugallanmagan ishlab chiqarish, ichki nazorat, biotransformatsiya, analitik schyotlar, xo'jalik operatsiyalari, inventarizatsiya.

Аннотация

В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования учета и внутреннего контроля биологических активов в рыбном хозяйстве на основе международных стандартов. То есть были сформированы аналитические отчеты по учету биотрансформации рыбы и рекомендации по отражению в бухгалтерском учете хозяйственных операций, связанных с биотрансформацией биологических активов в рыбном хозяйстве, а также выводы и предложения, освещающие вопросы инвентаризации процесса по личинкам. для товарной рыбы в рыболовстве.

Ключевые слова: Биологические активы, незавершенное производство, внутренний контроль, биотрансформация, аналитический учет, хозяйственная деятельность, инвентаризация.

Abstract

This article describes the issues of improving the accounting and internal control of biological assets in fisheries based on international standards. That is, analytical accounts to take into account the biotransformation of fish and recommendations for the accounting of economic operations related to the biotransformation of biological

assets in fisheries, as well as the issues of inventorying the process from larvae to commercial fish in fisheries are covered. Conclusions and proposals were formed.

Keywords: biological assets, work in progress, internal control, biotransformation, analytical accounts, farm operations, inventory.

KIRISH

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga jadal o'tishni ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son¹li qarori qabul qilindi [1]. Mazkur qarorda O'zbekistonda buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXSGa muvofiqlashtirish va uyg'unlashtirish vazifasi aniq belgilab berilgan.

Shu sababli, baliqchilik xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish va MHXSlarga o'tish dolzarb masala hisoblanadi. Bu esa baliqchilik xo'jaliklarida moliyaviy hisobotlarning xalqaro darajada tan olinishi, shuningdek, investitsiyalarni jalb qilish, ichki va tashqi buxgalteriya hisobi axborotlaridan foydalanuvchilar uchun hisobotlarning haqqoniyligi hamda shaffofligini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Biologik aktivlar hisobi va uning ichki nazorati masalasida xorijlik hamda mamlakatimiz iqtisodchi olimlari izlanishlari natijasida o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar.

Iqtisodchi olim A.O. Beryozaning fikricha, «Balansning birinchi bo'limida biologik aktivlarni hisobda aks ettirish sifatida "Doimiy aktivlar" guruhiga "Uzoq muddatli biologik aktivlar"ni joriy etish zarur. Ushbu modda, o'z navbatida, biologik aktivlarning iqtisodiy qiymatini aks ettiruvchi muhim element sifatida qo'llanilishi kerak» [2].

A.M. Terexov esa qishloq xo'jaligi tashkilotlarida biologik aktivlarni hisobga olishning joriy holatini tahlil qilish asosida ularni hisobga olish jarayonini optimallashtirish bo'yicha o'z tavsiyalarini keltirib o'tadi. Jumladan, iqtisodchi olim biologik aktivlarni hisobga olish uchun alohida schyotlar ajratgan holda ishchi schyotlar rejasiga o'zgartirish kiritishni tavsiya qilib, tegishli sintetik, analitik va subschyotlarni taklif etadi. Shu bilan birga, u taklif etgan schyotlar yordamida biologik aktivlar bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini ko'rsatib beradi [4].

Mahalliy olimlardan B.Yu. Menglikulovning ta'kidlashicha, «Chorvachilikda biologik aktivlar haqidagi hisob ma'lumotlari to'g'riligi va ishonchliligini auditorlik tekshiruvdan o'tkazish xo'jalik yurituvchi subyektlar auditining zarur bo'lgan muhim bo'limidir. Chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarda biologik aktivlar hisobi hamda auditini tashkil etish va yuritishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Avvalo, auditor chorvachilikda biologik aktivlarni tekshirishda bir qator dalillarni to'plashi kerak bo'ladi:

¹ <https://lex.uz/docs/-4746047>

- Chorvachilikda biologik aktivlar bo'yicha buxgalteriya hisobi schyotlarida boshlang'ich qoldiqlar mavjudligi, xo'jalikning hisob ishlarida auditdan o'tkazilayotgan davr uchun hisobotga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan xato-kamchiliklarning bor yoki yo'qligi;
- Chorvachilik xo'jaliklarida joriy davrdagi biologik aktivlar schyotlari bo'yicha boshlang'ich saldoning o'tgan davrdan o'z vaqtida, to'g'ri va to'liq o'tkazilganligi;
- Xo'jalikda biologik aktivlarni baholash bo'yicha davrdan davrga izchillikning mavjudligi hisob siyosatida ko'rsatilganligi» [3].

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash, kuzatish hamda retrospektiv tahlil usullari qo'llanildi. Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Birinchi bosqich — baliqchilik xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimi tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqich — biologik aktivlarning hisobini yuritishda qo'llanilayotgan usullar o'rganildi.

Uchinchi bosqich — ichki nazoratni kuchaytirish va hisob tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

To'rtinchi bosqich — buxgalteriya hisobi va nazorat tizimini takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Baliqchilikda biologik aktivlar va tugallanmagan ishlab chiqarishni hisobga olish hamda ichki nazoratni tashkil etishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Turi, yoshi-jinsi va texnologik guruhlar bo'yicha baliqlarning haqiqatdagi miqdori va og'irligini hisob-kitob qilish;
- Jarohatlangan, kasal, nuqsonli va o'sishdan orqada qolayotgan baliqlarni brakka chiqarish;
- Korxonalar menejmenti uchun baliqchilikdagi biologik aktivlar va tugallanmagan ishlab chiqarish to'g'risida ishonchli, aniq va tezkor axborotlarni shakllantirish hamda taqdim etish.

Baliqlarning biotransformatsiyalanishi (bitta ishlab chiqarish-texnologik siklidan ikkinchisiga o'tishi)da bosh soni va miqdorini hisobga olish uchun 1100 – “O'stirishdagi va boquvdagi chorva hayvonlar” schyotining tarkibida 1130 – “O'stirishdagi va boquvdagi baliqlar” schyotini va unga alohida analitik schyotlarni ochish tavsiya etiladi.

Baliqlarning biotransformatsiyalanishi natijasida bir guruhdan ikkinchisiga o'tkazilishi ularga qilingan xarajatlardan va tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini hisobda aniq aks ettirishni talab etadi.

Mahsuldor baliqlarni hisobga olish uchun “Mahsuldor baliqlar” analitik schyotini ochish, baliqlarning ota-onalik to'ldasini hisobga olish uchun “Baliqlarning ota-onalik to'ldasi” nomli analitik schyotni ochish ham tavsiya etiladi.

Baliqlarning ota-onalik to‘dasini to‘ldirish ularni baliqchilik xo‘jaligining o‘zida yetishtirish yoki sotib olish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Jinsiy voyaga yetgan baliqlarni ota-onalik to‘daga o‘tkazishda 1130 – “O‘stirishdagi va boquvdagi baliqlar” schyotining “Baliqlarning ota-onalik to‘dasi” analitik schyoti debetlanadi va 2810 – “Ombordagi tayyor mahsulotlar” schyoti kreditlanadi. Chet tashkilotlardan sotib olinganida esa 1110 – “O‘stirishdagi va boquvdagi baliqlar” schyotining “Baliqlarning ota-onalik to‘dasi” analitik schyoti debetlanadi va 6010 – “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar” schyoti kreditlanadi (1-jadval).

1-jadval

Karpsimon baliqlar yetishtirishga ixtisoslashgan to‘la tizimli xo‘jaliklarda baliqlarning biotransformatsiyalanishini hisobga olish uchun tavsiya etiladigan analitik schyotlar¹

Hisob obyekt	Tavsiya etilgan analitik schyotlar
1130 - «O‘stirishdagi va boquvdagi baliqlar»	1131 - “Mahsuldor urg‘ochi baliqlar”
	1132 - “Mahsuldor erkak baliqlar”
	1133 - “O‘stirishdagi lichinkalar”
	1134 - “O‘stirishdagi chavoqlar”
	1134 - “O‘stirishdagi segoletkalar”
	1135 - “Boquvdagi bir yillik baliqlar”
	1136 - “Boquvdagi ikki yillik baliqlar”
	1137 - “Sotish, qayta ishlash yoki mahsuldor to‘daga o‘tkazish uchun boqilayotgan baliqlar”

Baliqlar ota-onalik to‘dadan mahsuldor baliqlar guruhiga o‘tkazilganida, 1130 – “O‘stirishdagi va boquvdagi baliqlar” schyotining “Mahsuldor baliqlar” analitik schyoti debetlanadi va 1130 – “O‘stirishdagi va boquvdagi baliqlar” schyotining “Baliqlarning ota-onalik to‘dasi” analitik schyoti kreditlanadi. Chet tashkilotlardan sotib olinganida esa 6010 – “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar” schyoti kreditlanadi.

Mahsuldor baliqlar va baliqlarning ota-onalik to‘dasi ularni yetishtirish uchun sarflangan haqiqiy xarajatlar yoki sotib olish qiymati bo‘yicha hisobga olinadi.

Baliqchilik xo‘jaligida mahsuldor baliqlar va baliqlarning ota-onalik to‘dasi bir yilda ikki marta inventarizatsiya qilinadi. Bahorgi inventarizatsiya hovuzlardagi baliqlar to‘liq ovlanib, mahsuldor baliqlar va baliqlarning ota-onalik to‘dasi onalik va urchitish hovuzlariga o‘tkazilganidan so‘ng amalga oshiriladi (2-jadval).

Kuzgi inventarizatsiya qishlatishdan oldin onalik va urchitish hovuzlari to‘liq ovlanib, qishlatiladigan hovuzlarga o‘tkazilganidan so‘ng amalga oshiriladi. Inventarizatsiya baliqchilik xo‘jaligida ishlab chiqilgan “Inventarizatsiya rejasi”ga muvofiq o‘tkaziladi.

Mahsuldor baliqlar va ota-onalik baliqlarni sotish reja tannarxi bo‘yicha 9110 – “Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi” schyotining debeti va 1130 – “O‘stirishdagi va boquvdagi baliqlar” schyotining “Baliqlarning ota-onalik to‘dasi” analitik schyoti kreditida aks ettiriladi.

¹ Muallif ishlanmasi

2-jadval
Baliqchilikda biologik aktivlar biotransformatsiyalanishiga doir xo‘jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish bo‘yicha tavsiyalar¹

№	Operatsiya mazmuni	Asos bo‘luvchi boshlang‘ich hujjat	Schyotlar korrespondensiyasi	
			Debet	Kredit
1	Yetiltirilgan lichinkalarni kiringa olish	«Nasl olish natijalari to‘g‘risida Dalolatnoma»	1133 - “O‘stirishdagi lichinkalar”	2012 - “Baliqlar-ning ota-onalik to‘dasini saqlash va boqish”
2	Lichinkalarni o‘stirish hovuzlariga o‘tkazish	«Hovuzga baliq qo‘yish Dalolatnomasi»	2013 - “Uvildiriqdan lichinkalarni chiqarish va o‘stirish”	1133 - “O‘stirishdagi lichinkalar”
3	Yetiltirilgan chavoq (malk) larni kiringa olish	«Mavsumda lichinkalarni o‘stirish natijalari to‘g‘risida Dalolatnoma»	1134 - “O‘stirishdagi chavoqlar”	2013 - “Uvildiriqdan lichinkalarni chiqarish va o‘stirish”
4	Chavoq (malk)larni o‘stirish hovuzlarga o‘tkazish	«Hovuzga baliq qo‘yish Dalolatnomasi»	2014 - “Segoletkalarni yetiltirish”	1134 - “O‘stirishdagi chavoqlar”
5	Yetiltirilgan segoletkalarni kiringa olish	«Baliqlarni guruhdan-guruhga o‘tkazish Dalolatnomasi»	1134 - “O‘stirishdagi segoletkalar”	2014 - “Segoletkalarni yetiltirish”
6	Segoletkalarni qishlatish hovuzlariga o‘tkazish	«Baliqlarni qishlatish hovuzlariga o‘tkazish Dalolatnomasi»	2015 - “Segoletka-larni qishlatish hovuzlarida saqlash”	1134 - “O‘stirishdagi segoletkalar”
7	Qishlovdan chiqqan segoletkalarni yaylov hovuzlariga o‘tkazish	«Hovuzga baliq qo‘yish Dalolatnomasi»	1135 - “Boquvdagi bir yillik baliqlar”	2015 - “Segoletkalarni qishlatish hovuzlarida saqlash”
8	Boquvdagi bir yillik baliqchalarni yaylov hovuzlariga o‘tkazish	«Hovuzga baliq qo‘yish Dalolatnomasi»	2016 - “Ikki yillik baliqlarni yaylov hovuzlarida yetiltirish”	1135 - “Boquvdagi bir yillik baliqlar”
9	Ikki yillik baliqlarni kiringa olish	«Baliqlarni guruhdan-guruhga o‘tkazish Dalolatnomasi»	1136 - “Boquvdagi ikki yillik baliqlar”	2016 - “Ikki yillik baliqlarni yaylov hovuzlarida yetiltirish”
10	Boquvdagi ikki yillik baliqlarni: a) boqish uchun hovuzda qoldirish	«Baliqlarni yaylov hovuzlariga o‘tkazish Dalolatnomasi»	2016 - “Ikki yillik baliqlarni yaylov hovuzlarida yetiltirish”	1136- “Boquvdagi ikki yillik baliqlar”
	b) sotishga	«Tovar-transport yuk xati»	9110 - “Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi”	
	v) mahsuldor baliqlar qatoriga o‘tkazish	«To‘ldiruvchi ota-onalik to‘dani shakllantirish Dalolatnomasi»	1131 - “Mahsuldor urg‘ochi baliqlar” 1132 - “Mahsuldor erkak baliqlar”	

¹ Muallif ishlanmasi

Baliqlarni ota-onalik to‘dadan brakka chiqarish va ularni yaylov hovuzlarga o‘tkazish 2810 – “Ombordagi tayyor mahsulotlar” schyotining debeti va 1130 – “O‘stirishdagi va boquvdagi baliqlar” schyotining “Baliqlarning ota-onalik to‘dasi” analitik schyoti kreditida, shu bilan birga, 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” schyotining “Sotiladigan (tovar) baliqlarni yetishtirish” analitik schyoti debeti va 2810 – “Ombordagi tayyor mahsulotlar” schyoti kreditida aks ettiriladi.

Brakka chiqarilgan va tahlil (ekspertiza) uchun ishlatilgan baliqlar qiymati 9430 – “Boshqa operatsion xarajatlar” schyotining debeti va 1130 – “O‘stirishdagi va boquvdagi baliqlar” schyotining “Mahsuldor baliqlar” analitik schyoti kreditida aks ettiriladi.

Baliqlarni ota-onalik to‘dadan brakka chiqarish normativ hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Baliqchilikda biologik aktivlar va tugallanmagan ishlab chiqarishni inventarizatsiya qilish 19-sonli “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish” nomli Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS) [O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatga olingan, № 833, 1999-02-11] va boshqa tegishli normativ hujjatlar hamda ushbu uslubiy tavsiyalar qoidalari asosida tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

Baliqchilikda biologik aktivlar va tugallanmagan ishlab chiqarishni inventarizatsiya qilish, ya’ni hovuzlarda boqilayotgan baliqlarni inventarizatsiya qilish hisob guruhlari va moddiy javobgar shaxslar bo‘yicha: a) eng kam qoldiq qolgan vaqtlarda (permanent inventarizatsiya), yoki b) baliqlarni boqish muddati yakunlanib, boshqa hovuzlarga o‘tkazish vaqtida amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

Baliqchilik xo‘jaliklarida tugallanmagan ishlab chiqarishni biologik aktivlarning har bir biotransformatsiyalanish jarayoni – mahsuldor va ota-onalik baliqlar to‘dasi, lichinkalar, chavoqlar, segoletkalar, bir yillik, ikki yillik, uch yillik (uch yillik oborotdagi) baliqlar, sotish uchun qoldirilgan hamda ovlanib omborlarda saqlanayotgan baliqlar bo‘yicha inventarizatsiya qilish maqsadga muvofiq.

Baliqlarning mahsuldor va ota-onalik to‘dasi tarmoq xususiyatidan kelib chiqqan holda bir yilda ikki marta – bahorda va kuzda – inventarizatsiya qilish tavsiya etiladi. Bu hovuzlardagi baliqlarni ovlash vaqtida “Inventarizatsiya qaydnomasi”ga asosan amalga oshiriladi.

Bahorgi inventarizatsiya qishlatilgan baliqlar to‘liq ovlanib, mahsuldor va ota-onalik to‘da urchitish va o‘stirish hovuzlariga ko‘chirilganidan so‘ng amalga oshiriladi. Kuzgi inventarizatsiya esa o‘stirish hovuzlari to‘liq ovlanib, mahsuldor va ota-onalik to‘da qishlatiladigan hovuzlarga ko‘chirilganidan so‘ng amalga oshiriladi. Inventarizatsiya o‘tkazish muddatlari “Hujjatlar aylanish reja-grafigi”ga muvofiq belgilanadi.

Ushbu qaydnoma baliqchilik xo‘jaligining hisob siyosatiga muvofiq tashkil etilgan, doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi komissiya tomonidan tuzilib, rahbar tomonidan tasdiqlanadi.

Qaydnomaning tegishli grafalarida baliqlarning turi, zot guruhi, yoshi va jinsi, havzaga qo‘yilgan hamda ovlab olingan baliqlar miqdori, o‘rtacha vazni, komissiya qaroriga muvofiq baliqlarni ishlatish yo‘nalishlari (xo‘jalikda qoldirilgani, mahsuldor

material sifatida sotilgani, brak qilingani va h.k.) va hisob-kitob ko'rsatkichlari – soni, og'irligi va vaznining o'zgarishi (qo'shilgan yoki yo'qotilgan vazn) ko'rsatiladi. Shuningdek, baliqlarning defektlari, jarohatlanganligi va kasallanganligi tekshiriladi.

Baliqlarni tekshirish ixtiopatolog ishtirokida amalga oshirilib, baliqlarning klinik holati aniqlanadi, ularda parazitlar va yuqumli kasalliklar bor-yo'qligi tekshiriladi hamda iste'molga yaroqliligi yoki tavsiya etiladigan profilaktika usullari va davolash tadbirlari to'g'risida xulosa beriladi.

Qaydnoma belgilangan talablarga muvofiq rasmiylashtirilganidan so'ng xo'jalik rahbari tomonidan imzolanadi va buxgalteriyaga topshiriladi.

Shunday qilib, baliqchilik xo'jaliklarida tugallanmagan ishlab chiqarish va biologik aktivlar hisobi bo'yicha shakllantirilgan ilmiy takliflar hamda amaliy tavsiyalar quyidagilardan iborat:

- Baliqlarning biotransformatsiyalanishi davomida joriy hisobda aniq aks ettirish, ovlangan va saqlanayotgan baliq mahsulotlari ustidan ichki nazorat hamda moddiy javobgarlikni ta'minlaydi;
- Baliqchilikdagi oraliq va yakuniy mahsulotlarning tannarxi va uni pasaytirish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi;
- Baliqchilik xo'jaliklarida tugallanmagan ishlab chiqarish, o'stirishdagi va boquvdagi baliqlar hamda ovlangan baliqlar bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisobotidagi qoldiqlarning ishonchligini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. To'la tizimli hovuz baliqchiligi xo'jaliklarida baliqlarning biotransformatsiyalanishini hisobga olish uchun analitik schyotlar tavsiya etildi;
2. Baliqchilikda biologik aktivlar biotransformatsiyalanishiga doir xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;
3. Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish uslublarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;
4. Inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish uchun baliqchilik tarmog'ining xususiyatlariga mos boshlang'ich hisob hujjatlarining namunaviy shakllari tavsiya qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. А.О.Берёза. Основные проблемы раскрытия информации о биологических активах в финансовой отчетности. Вестник ВГУ. Серия: Экономика и управление. 2019. № 2. – 85 б.
2. Б.Ю.Менгликулов. Чорвачиликда биологик активларни сақлаш харажатлари ҳисоби, таннарх ҳисоблаш ва аудити методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс. –Т.: 2023. – 179 б.
3. Терехов А.М. Бухгалтерский учет и оценка биологических активов в сельскохозяйственных организациях. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Нижний Новгород 2014. – 119 ст.

4. АССА, (2011) Международные стандарты финансовой отчетности, 2011: издание на русском языке. М.: Аскери –АССА, – С.642.

5. Болтаев А. (2024) БИОЛОГИК АКТИВЛАР ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ ЖИҲАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //Economics and Innovative Technologies. – Т. 12. – №. 1. – С. 36-47.

6. Хоружий Л.И., Доржиев Д.Ц. (2010) Методика оценки и учета прудовых земель и продукции в рыбовод-ческих организациях / Бухгалтерский учет в сельском хозяйстве. — №10. – С. 4-7.

7. Menglikulov B.Yu. (2019) Biologik aktivlarni tan olish va hisobini tashkil etish. Moliya va bank ishi, elektron ilmiy jurnal. 5-son. sentyabr – oktyabr



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournlbot](https://t.me/marketinjournlbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**